

**G.BARBADENSE L. G'OZA TURIGA MANSUB AYRIM
GENOTIPLARIDA 1000 DONA CHIGIT VAZNI**

Munisa Arabova Normo'minovna

*Mirzo Ulug'bek Nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Botanika va
Genetika kafedrası tayanch doktoranti*

E-mail: munisa1294arabova@gmail.com

tel: +998 97 812 12 94

Annotatsiya. *Ushbu maqolada go'zaning G.Barbadense L. turiga mansub nav namunalari qimmatlik xo'jalik belgilari ya'ni 1000 dona chigit vazni o'rganish to'g'risidagi ma'lumotlarga to'xtalib o'tilgan. Bu esa kelgusida ushbu namunalardan seleksiya jarayonida samarali foydalanish imkoniyatlarini beradi.*

Kalit so'zlar: *Tur, g'o'za, nav, morfologiya, tetraploid, vegetasiya, duragay.*

Abstract. *In this article, information on the study of economically valuable traits, i.e., the weight of 1000 seeds, of cotton varieties belonging to the species G. Barbadense L. is presented. This will allow for the effective use of these samples in the breeding process in the future.*

Keywords: *Species, cotton, variety, morphology, tetraploid, vegetation, hybrid.*

Jahon paxta bozorida tolasi qimmat baholanadigan ingichka tolali g'o'zaning yangi navlarini yaratishda *G.barbadense* L. turiga mansub nav namunalari va xilma-xilliklardan keng foydalanish, qimmatli xo'jalik belgilari takomillashtirilgan donorlar olish imkonini beradi.

Ma'lumki, hosildorlik darajasini aniqlashda o'simlikdagi ko'saklar soni, bir dona ko'sakda to'liq tugilgan chigitlar soni, 1000 dona chigit vazni, tola chiqimi va bir dona ko'sakdagi paxtaning vazni kabi ko'rsatkichlar muhim rol o'ynaydi. Chunki bu ko'rsatkichlar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, belgining rivojlanishida korrelyatsion ta'sirga ega. Bundan tashqari klassik uslublar asosida turlarning filogenetik munosabatlarini aniqlashda bitta ko'sakda tugilgan chigitlarning sifat va

miqdor ko'rsatkichlari asos qilib olinadi.

G.Barbadense L. turi vaqt o'tishi bilan fotoperiodga talabchan, kechpishar va tola chiqimi kam lekin xalqaro paxta bozorida ingichka tolali turiga mansub g'o'za navlarining tolasiga, o'rta tolali navlar tolasiga nisbatan qimmat baholanadi. Bu tipdagi bir tonna toladan bir necha marta ko'proq gazlama yigiriladi va narxi ham yuqori turadi[1].

Sifatli urug' tushunchasiga ta'rif berilar ekan, asosan laboratoriya fiziologik ko'rsatkichlari, o'suv quvvati, unuvchanlik, mexanik shikastlanganligi yoki dala ko'rsatkichlari bilan birga irsiy yoki genetik ko'rsatkichlari, nav tozaligi, birxilligi, barqarorligi va hokazolar kirishi qayd etib o'tiladi[2].

G'o'za o'simligining hosil shoxlaridagi joylashgan o'rniga ko'ra shakllangan chigitlarning hosil shoxlarida pastdan yuqoriga, chanoqlarning joylashgan o'rniga ko'ra bosh poyadan uzoqlashgani sari kamayib borishi kuzatiladi[3].

O'rganilgan namunalarda 1000 dona chigit vazni bo'yicha sezilarli farqlar aniqlandi. Eng yuqori ko'rsatkich Pais №3 namunada ($131,23 \pm 0,49$ g) kuzatilib, u past variatsiya koeffitsienti (1,13%) bilan yuqori barqarorlikka ega ekanligi bilan ajralib turdi. Shuningdek, Giza 19 ($125,72$ g) va 9078 ($119,06$ g) namunalari ham yirik urug'liligi va nisbatan barqarorligi bilan muhim ahamiyatga ega.

G'o'zaning *G.BARBADENSE* L. Turi nav namunalarida 1000 dona chigit vazni

1000 dona chigit vazni g						
	Ota va ona namunalar	dona	$\bar{x} \pm S\bar{x}$	limit	S	V%
	Giza 19	10	125.72 ± 1.49	122.2- 131.2	4.48	3.56
	VIR	10	$92.18 \pm 0,98$	87.8-	2.95	3.20

124 TB			96.1		
Az 512	10	89.85±2.44	73.9- 97.5	7.32	8.14
ViR 117 TB	10	91.21±0.85	87.4- 95.2	2.56	2.80
ViR 125 TB	10	87.41±1.19	81.6- 91.5	3.58	4.10
Pais №3	10	131.23±0.49	129.5- 133.5	1.48	1.13
Tadla- 9	10	111.53±0.76	105.8- 113.6	2.28	2.04
9078	10	119.06±0.70	114.5- 122.5	2.11	1.78

1-jadval.

Oʻrtacha koʻrsatkichlar VIR 124 TB, ViR 117 TB va Tadla-9 namunalarda qayd etilib, ularda oʻzgaruvchanlik past darajada boʻldi. Eng past koʻrsatkich Az 512namunada aniqlanib, unda variatsiya koeffitsienti eng yuqori (8,14%) ekanligi kuzatildi. Umuman olganda, Pais №3, Giza 19 va 9078 namunalari yuqori vazn va barqarorligi bilan seleksiya ishlari uchun istiqbolli hisoblanadi.

Tadqiqot natijalariga koʻra, Pais №3, Giza 19 va 9078 namunalari 1000 dona chigit vaznining yuqoriligi hamda past variatsiya koeffitsienti bilan ajralib turib, eng yaxshi koʻrsatkichlarni namoyon etdi. Ushbu namunalarda belgining barqarorligi yuqori boʻlib, ular seleksiya ishlari uchun istiqbolli manba sifatida baholanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Giband M., Dessauw D., Barroso P.A.V. The taxonomy of the Genus Gossypium // In: Molecular biology of symbiotic nitrogen fixation.- Edited by P.J.Wakelyn, M.R.Chaudhry. Cotton: technology for the 21st Century.- ICAC, - Washington, 2010. - P. 5-17. .
2. 2. Kozubayev Sh.S. The importance of determining the genetic purity of varieties in cotton seed production. /Actual problems and prospects for the development of agricultural crop genetics, selection, seed production, and cultivation agrotechnologies. Collection of materials of the International Scientific-Practical Conference. Tashkent: 2018.- 663.
3. 3. Rashidova D. K., Mamedov N. M., Yakubov M. M. CHANGE IN THE WEIGHT OF 1000 SEEDS DEPENDING ON THEIR LOCATION IN COTTON //Science and innovation. - 2021. - Vol. 3. - No. Special Issue 21. - P. 18-21.